

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV TOPSHIRIQLARNI LOYIHALASHGA METODIK TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shodmonova Muhayyo Qurbonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: Gaimnazarova.muhayyo@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-6105-2712>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga metodik tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kommunikativ maqsad, autentik vaziyat, o'quvchilararo interaktsiya, raqamli vositalardan foydalanish, baholash va refleksiya o'zaro bog'lash samarali metodik tayyorgarlikning muhim sharti ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, metodik tayyorgarlik, kommunikativ topshiriq, kommunikativ kompetensiya, autentik vaziyat, interaktsiya, raqamli vositalar, refleksiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА К ПРОЕКТИРОВАНИЮ КОММУНИКАТИВНЫХ ЗАДАНИЙ

Шодмонова Мухайё Курбоновна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются педагогические возможности методической подготовки будущих учителей английского языка к проектированию коммуникативных заданий. В результате исследования обосновано, что взаимосвязь коммуникативной цели, аутентичной ситуации, взаимодействия между учащимися, использования цифровых средств, оценивания и рефлексии является важным условием эффективной методической подготовки.

Ключевые слова: будущие учителя английского языка, методическая подготовка, коммуникативное задание, коммуникативная компетенция, аутентичная ситуация, взаимодействие, цифровые средства, рефлексия.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR PREPARING PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS TO DESIGN COMMUNICATIVE TASKS

Shodmonova Muhayyo Qurbonovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, PhD Student.

Abstract.

This article analyzes the pedagogical opportunities for preparing future English language teachers to design communicative tasks. The findings demonstrate that integrating communicative goals, authentic situations, learner interaction, the use of digital tools, assessment, and reflection is an essential condition for effective methodological preparation.

Keywords: future English language teachers, methodological preparation, communicative task, communicative competence, authentic situation, interaction, digital tools, reflection.

Kirish. Zamonaviy ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning til birliklarini o'zlashtirishi bilan bir qatorda, ulardan real muloqot jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli dars jarayonini o'quvchilarning faol nutqiy ishtiroki, fikr almashishi, muammoni birgalikda hal qilishi va turli kommunikativ vaziyatlarda mustaqil til tanlovini amalga oshirishiga yo'naltirish zarur. Zamonaviy tadqiqotlarda topshiriqqa asoslangan, interaktiv va autentik faoliyatlarning o'quvchilarning og'zaki muloqoti hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari qayd etilmoqda. Xususan, TBLT asosidagi intervyu, muhokama va kundalik muloqotga yaqin topshiriqlar o'quvchilarning nutq ravonligi va interaktsion ishonchini yaxshilashga xizmat qilgan [3; B. 130].

Kommunikativ yo'naltirilgan ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan darsda qo'llaniladigan topshiriqning qanday loyihalanganiga bog'liq. Discussion, role-play, pair va group work, project hamda boshqa interaktiv shakllardan foydalanish o'quvchilarning fikrini shakllantirish, og'zaki bayon etish, savollarga javob berish va kommunikativ vaziyatda tildan faol foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi [7; B. 1]. Biroq kommunikativ metod yoki faoliyat nomining o'zi topshiriqning kommunikativ xususiyatini kafolatlamaydi. Topshiriqda aniq muloqot maqsadi, o'quvchilar

o'rtasida axborot yoki fikr almashish ehtiyoji, tegishli vaziyat va kutilayotgan kommunikativ natija mavjud bo'lishi zarur.

Bu holat bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga alohida talab qo'yadi. O'qituvchi tayyor darslik mashqlarini qo'llash bilangina cheklanmasdan, o'quvchilarning yoshi, til darajasi, kommunikativ ehtiyoji va dars maqsadidan kelib chiqib topshiriqlarni tanlay olishi, moslashtirishi hamda mustaqil loyihalashi kerak. Agustin va Wirza o'qituvchining zamonaviy EFL ta'limidagi rolini materiallardan oddiy foydalanuvchi sifatida emas, balki ularni loyihalovchi, ishlab chiquvchi va baholovchi sifatida ham ko'rsatadi [3]. Bu yondashuv kommunikativ topshiriqlarni loyihalash ko'nikmasini bo'lajak o'qituvchining metodik kompetensiyasining muhim tarkibiy jihatlaridan biri sifatida qarash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ushbu masalani yanada dolzarb qilmoqda. Bunday vositalar kommunikativ vaziyatlar, rollar, audio-vizual materiallar yoki speaking prompts yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq texnologiyaning mavjudligi o'z-o'zidan sifatli kommunikativ faoliyatni ta'minlamaydi. Luo va hammualliflarning information-gap faoliyati bo'yicha tadqiqotida topshiriq dizaynida autentiklik, turn-taking, savol berishni qo'llab-quvvatlash va feedback kabi elementlarning ahamiyati ko'rsatilgan [8]. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanishga o'rgatish bilan bir qatorda, ularni aniq kommunikativ maqsad asosida metodik integratsiyalashga tayyorlash ham zarur.

Mavjud tadqiqotlarda role-play, TBLT, autentik materiallar, interaktiv metodlar va raqamli vositalarning kommunikativ kompetensiyaga ta'siri keng o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kommunikativ topshiriqni mustaqil loyihalash jarayoniga zarur metodik tayyorgarligi alohida tizim sifatida yoritilishi muhimligicha qolmoqda. Ayniqsa, kommunikativ maqsadni belgilash, autentik vaziyat yaratish, o'quvchilararo interaksioni tashkil etish, raqamli vositalarni maqsadga muvofiq tanlash, natijani baholash va topshiriqni refleksiv tahlil qilishning o'zaro bog'liqligini metodik tayyorgarlik doirasida ko'rib chiqish zarur.

Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga metodik tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni o'zaro bog'langan metodik komponentlar sifatida tizimlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda o'quvchini mazmunli nutqiy faoliyatga jalb etuvchi interaktiv va topshiriqqa asoslangan metodlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Córdoba Zúñiga, Mayorga va Ruiz tomonidan olib borilgan tadqiqotda Task-Based Language Teaching asosida intervyu, muhokama va kundalik kommunikativ vaziyatlarga yaqin og'zaki topshiriqlardan foydalanilgan. Natijalar bunday topshiriqlar o'quvchilarning nutq ravonligi, nutq sur'ati, fikrni aniq ifodalash va interaksionidagi ishonchini rivojlantirish imkonini berganligini ko'rsatgan [3; B. 130]. Bu kommunikativ topshiriqni loyihalashda til shaklini mashq qilishdan ko'ra, o'quvchini muayyan kommunikativ natijaga yo'naltiruvchi faoliyatning muhimligini ko'rsatadi.

Interaktiv faoliyatlarining kommunikativ kompetensiya rivojidadagi o'rni Latygina va hammualliflar tadqiqotida ham kuzatiladi. Mualliflar discussion, conversation, role-play, pair work, small-group work, project method va mobil ilovalardan foydalanishga asoslangan interaktiv metodlar majmuasini qo'llaganlar. Tadqiqot natijalari mazkur faoliyatlar fikrni shakllantirish va og'zaki bayon etish, savollarga javob berish, axborotni tahlil qilish va turli nutqiy vaziyatlarda tildan foydalanish ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi [7; B. 1]. Shu jihatdan kommunikativ topshiriqni loyihalashda o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot shaklini oldindan belgilash metodik jihatdan muhim hisoblanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tayyorgarligi nuqtayi nazaridan Kuzembayeva, Kuanyshbayeva, Maydangalieva va Spulber tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. Mualliflar 36 nafar pre-service EFL teacher ishtirokida role-playing gamesdan tizimli foydalanish dialogik nutq va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini aniqlaganlar [6; B. 278]. Role-play orqali shartli real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish o'quvchidan mavjud til birliklarini tayyor shaklda takrorlashni emas, balki vaziyat va rolga mos ravishda mustaqil kommunikativ qaror qabul qilishni talab qiladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchini shunday vaziyatlarni mustaqil loyihalashga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Kommunikativ topshiriqlarning autentikligi ham tadqiqotlarda muhim omil sifatida qayd etilgan. Keshmirshekan autentik audio-vizual va bosma materiallardan foydalanilgan guruhda kommunikativ kompetensiya natijalari an'anaviy o'quv materiallari bilan ishlagan guruhga nisbatan yuqoriroq bo'lganini aniqlagan [5]. Agustin va Wirza esa ingliz tili o'qituvchisining vazifasini tayyor materialni qo'llash bilangina cheklamay, o'quvchilar ehtiyojiga muvofiq materiallarni tanlash, moslashtirish, ishlab chiqish va baholash bilan bog'laydi. Mualliflar o'qituvchini *materials designer, developer, evaluator and explorer* sifatida tavsiflaydi. Mazkur qarash kommunikativ topshiriqlarni loyihalash kompetensiyasini bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishga asos beradi.

Raqamli vositalarni kommunikativ faoliyat bilan bog'lashda ham topshiriq dizayni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Luo va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan *Let's Talk* mobil ilovasi information-gap faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilgan. Mualliflar an'anaviy information-gap topshiriqlarida autentiklik, savolni boshlash uchun scaffolding, turn-taking va feedback yetarli bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadilar. Bu natija raqamli vositani kommunikativ topshiriqqa qo'shishning o'zi yetarli emasligini, uning kommunikativ jarayondagi aniq funksiyasi oldindan metodik jihatdan loyihalashni zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, unda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga bag'ishlangan avval tanlab olingan ilmiy tadqiqotlarni mazmuniy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlilida kommunikativ topshiriqlarning amaliy xususiyatlari,

xususan, kommunikativ maqsad, autentik vaziyat, o'quvchilararo interaktsiya, raqamli vositalardan foydalanish, feedback va refleksiya bilan bog'liq jihatlar ajratib olindi. Ushbu belgilarni tizimlashtirish natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga metodik tayyorlashning asosiy pedagogik imkoniyatlari shakllantirildi.

Natijalar. Tahlil natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga metodik tayyorlash jarayonida o'zaro bog'langan beshta asosiy pedagogik imkoniyat ajratildi: kommunikativ maqsadni belgilash, autentik kommunikativ vaziyatni loyihalash, o'quvchilararo interaktsiyani tashkil etish, raqamli vositalarni metodik jihatdan integratsiyalash hamda baholash va refleksiyani yo'lga qo'yish. Mazkur komponentlar kommunikativ topshiriqni oddiy mashq sifatida emas, balki aniq kommunikativ natijaga yo'naltirilgan metodik birlik sifatida loyihalashga xizmat qiladi.

Jadval 1. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga metodik tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari

Pedagogik imkoniyat	Mazmuni	Bo'lajak o'qituvchida shakllantiriladigan metodik faoliyat
Kommunikativ maqsadni belgilash	Topshiriqning til birliklarini mashq qilishdan tashqari qanday kommunikativ natijaga olib kelishini aniqlash	O'quvchi topshiriq yakunida nima haqida, kim bilan va qanday maqsadda muloqot qilishini oldindan belgilash
Autentik kommunikativ vaziyatni yaratish	Real yoki real hayotga yaqin kontekst, muammo va kommunikativ ehtiyojni shakllantirish	Topshiriqni kundalik, akademik yoki ijtimoiy kommunikativ vaziyatlar asosida loyihalash
O'quvchilararo interaktsiyani tashkil etish	Pair work, group work, role-play, information-gap, problem-solving kabi shakllarni maqsadga muvofiq tanlash	O'quvchilarni faol fikr almashish, muzokara qilish, savol berish va javob qaytarishga jalb etish
Raqamli vositalarni integratsiyalash	AI, audio-video, multimodal va boshqa raqamli resurslardan kommunikativ maqsad asosida foydalanish	Raqamli vositani topshiriqning maqsadi, mazmuni va o'quvchi interaktsiyasiga mos ravishda tanlash
Baholash va refleksiya	Topshiriq natijasini fluency, interaction, appropriacy, task completion va boshqa mezonlar asosida baholash	O'quvchi faoliyatiga feedback berish, topshiriq samaradorligini tahlil qilish va keyingi dars uchun metodik qaror qabul qilish

Kommunikativ topshiriqni loyihalashda bo'lajak o'qituvchi faqat "qaysi grammatik struktura yoki lug'at birligi mashq qilinadi?" degan savolga emas, balki "o'quvchi ushbu til vositasidan qanday kommunikativ maqsadda foydalanadi?" degan savolga ham javob bera olishi zarur. Shu sababli topshiriq maqsadi axborot almashish, fikr bildirish, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish yoki suhbatdoshni ishontirish kabi real kommunikativ faoliyat bilan bog'lanishi muhim.

Kommunikativ topshiriqning samaradorligi uning autentik yoki real hayotga yaqin vaziyatga asoslanganligi bilan ham belgilanadi. O'quvchi faqat tayyor jumalarni takrorlash yoki oldindan belgilangan javoblarni qayta ishlab chiqish bilan cheklanmasdan, muayyan vaziyatda mustaqil til tanlovini amalga oshirishi lozim. Sayohat rejasini birgalikda tuzish, muammoli vaziyat bo'yicha yechim tanlash, maktab tadbirini rejalashtirish yoki turli pozitsiyalarni muhokama qilish kabi topshiriqlar kommunikativ ehtiyojni yuzaga keltiradi va o'quvchini faol nutqiy faoliyatga jalb etadi.

Bunday topshiriqlarda o'quvchilar o'rtasidagi interaktsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Juftlik va guruh ishlari, role-play, information-gap, problem-solving hamda collaborative tasklar o'quvchilarning fikr almashishi, savol berishi, javob qaytarishi, kelishishi yoki o'z pozitsiyasini himoya qilishiga imkon yaratadi. Bunda o'qituvchining vazifasi tayyor javobni berishdan ko'ra, muloqot uchun zarur pedagogik sharoitni yaratish va o'quvchilar nutqiy faolligini boshqarishdan iborat bo'ladi. Kommunikativ topshiriqlarni loyihalashda raqamli va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ham muhim metodik imkoniyatlarni yaratadi. Biroq texnologiyaning mavjudligi topshiriqning o'z-o'zidan kommunikativ bo'lishini ta'minlamaydi. Uning metodik qiymati autentik material taqdim etish, kommunikativ vaziyat yaratish, topshiriqni individual ehtiyojlarga moslashtirish, til yordamini shakllantirish yoki o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchi raqamli vositani uning texnik imkoniyatiga emas, avvalo kommunikativ maqsadiga mosligi asosida tanlashi lozim. Umuman, tahlil kommunikativ topshiriqni loyihalash jarayoni kommunikativ maqsad, autentik vaziyat, interaktsiya, metodik vosita, baholash va refleksiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslanishini ko'rsatdi. Ushbu elementlarning yaxlit holda tashkil etilishi bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining tayyor mashqlardan foydalanishdan mustaqil ravishda kommunikativ topshiriqlarni metodik jihatdan asoslab ishlab chiqish faoliyatiga o'tishiga imkon yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari kommunikativ topshiriqni samarali loyihalash faqat mashq turini tanlash bilan cheklanmasligini, balki kommunikativ maqsad, vaziyat, o'quvchilararo interaktsiya, metodik vositalar, baholash va refleksiyaning o'zaro bog'liqligini talab qilishini ko'rsatadi. Bu jihat kommunikativ til o'qitishning asosiy tamoyillari bilan mos keladi. Richards kommunikativ til o'qitishda mazmunli muloqot, o'quvchilar o'rtasidagi interaktsiya va real kommunikativ ehtiyojlarni yuzaga keltiruvchi faoliyatlarni til o'rganishning muhim shartlari sifatida ko'rsatadi [9; B. 4].

Shuning uchun bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining metodik tayyorgarligi tayyor mashqlarni qo'llash ko'nikmasidan kommunikativ vaziyat va maqsadga mos topshiriqlarni mustaqil loyihalash qobiliyatiga yo'naltirilishi zarur.

Kommunikativ topshiriqlarda autentiklik va interaktsiya o'zaro bog'liq metodik xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Real hayotga yaqin vaziyatning mavjudligi o'quvchida gapirish ehtiyojini yuzaga keltirishi mumkin, biroq topshiriqning tashkil etilishi o'quvchilar o'rtasida haqiqiy axborot yoki fikr almashishni talab qilmasa, kommunikativ maqsad to'liq amalga oshmaydi. Shu nuqtayi nazardan, pair work, group work, information-gap, role-play va problem-solving kabi shakllar faqat darsni faollashtiruvchi usullar emas, balki o'quvchini ma'no yaratish va muloqotni davom ettirish jarayoniga jalb qiluvchi metodik vositalar sifatida qaralishi lozim. CEFRda ham kommunikativ til faoliyati reception va production bilan cheklanmay, **interaction** va **mediation**ni ham qamrab olishi ta'kidlanadi [4; B. 30–33].

Natijalar raqamli va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda ham metodik maqsadning ustuvorligini ko'rsatadi. Raqamli platforma yoki AI vositasini darsga kiritishning o'zi kommunikativ kompetensiyani rivojlanishini ta'minlamaydi. Bunday vositalar autentik material yaratish, o'quvchilar darajasiga mos vaziyat va rollarni ishlab chiqish, savollar yoki speaking prompts tayyorlash hamda kommunikativ faoliyatni diversifikatsiya qilishga xizmat qilgandagina metodik ahamiyat kasb etadi. Demak, bo'lajak o'qituvchining raqamli kompetensiyasi texnologiyani ishlata olish bilan emas, uni aniq pedagogik va kommunikativ maqsadga muvofiq tanlay olish bilan bog'lanishi kerak. Kommunikativ topshiriqni baholash masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Agar baholash faqat grammatik aniqlik va lug'at boyligiga yo'naltirilsa, topshiriqning kommunikativ natijasi to'liq aks etmaydi. CEFR kommunikativ til kompetensiyasini lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarining o'zaro bog'liqligida talqin qiladi [4; B. 129]. Shu sababli kommunikativ topshiriqlarni baholashda fluency, interaction, appropriacy, coherence va task achievement kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining baholash kompetensiyasini kengaytiradi.

Metodik tayyorgarlikning yana bir muhim jihati refleksiya bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchi kommunikativ topshiriqni ishlab chiqish bilangina cheklanmay, uni amalga oshirgandan keyin o'quvchilarning ishtiroki, yuzaga kelgan muloqot sifati, topshiriqning qiyinchilik darajasi va tanlangan metodik vositalarning samaradorligini tahlil qila olishi zarur. Borg o'qituvchining amaliy qarorlari uning bilimlari, qarashlari va pedagogik tajribani qanday talqin qilishi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [2; B. 81]. Shu jihatdan microteaching, peer feedback va self-reflection kabi faoliyatlar kommunikativ topshiriqlarni loyihalash ko'nikmasini shakllantirishda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ topshiriqlarni loyihalashga tayyorlashda asosiy e'tibor tayyor metod va mashqlarni o'zlashtirishga emas, balki pedagogik vaziyatga mos mustaqil metodik qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi lozimligini ko'rsatdi. Kommunikativ topshiriqning samaradorligi uning alohida shakli yoki qo'llanilgan texnologiyasi bilan emas, balki o'quvchilarni maqsadli, mazmunli va o'zaro hamkorlikka asoslangan muloqotga jalb eta olish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchi ehtiyojiga mos topshiriqlarni mustaqil ishlab chiqish, ularning amaliy samaradorligini baholash hamda pedagogik qarorlarini refleksiv asoslashga kengroq o'rin berish maqsadga muvofiq. Bunday tayyorgarlik bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining metodik mustaqilligini kuchaytirib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarni ongli va moslashuvchan tashkil etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Agustin A., Wirza Y. Indonesian Teachers' Perspective towards the Use of Authentic Materials on Students' Communicative Competence in EFL Classroom // *Proceedings of the 2020 4th International Symposium on Computer Science and Intelligent Control (ISCSIC 2020)*. – New York: ACM, 2020. – 5 p. – DOI: [10.1145/3440084.3441215](https://doi.org/10.1145/3440084.3441215)
2. Borg S. Teacher Cognition in Language Teaching: A Review of Research on What Language Teachers Think, Know, Believe, and Do // *Language Teaching*. – 2003. – Vol. 36, No. 2. – P. 81–109. – DOI: [10.1017/S0261444803001903](https://doi.org/10.1017/S0261444803001903)
3. Córdoba Zúñiga E., Mayorga E., Ruiz N. Potential Implications of Task-Based Language Teaching on Developing EFL Learners' Oral Fluency // *International Journal of Learning, Teaching and Educational Research*. – 2023. – Vol. 22, No. 11. – P. 130–149. – DOI: [10.26803/ijlter.22.11.8](https://doi.org/10.26803/ijlter.22.11.8)
4. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 278 p. – [Electronic source](#)
5. Keshmirshekan M. H. Improving Upper-Intermediate EFL Learners' Communicative Competence through Authentic Materials // *Theory and Practice in Language Studies*. – 2019. – Vol. 9, No. 8. – P. 956–964. – DOI: [10.17507/tpls.0908.10](https://doi.org/10.17507/tpls.0908.10)
6. Kuzembayeva G., Kuanyshbayeva A., Maydangalieva Z., Spulber D. Fostering Pre-Service EFL Teachers' Communicative Competence through Role-Playing Games // *Journal of Education and E-Learning Research*. – 2023. – Vol. 10, No. 2. – P. 278–284. – DOI: [10.20448/jeelr.v10i2.4593](https://doi.org/10.20448/jeelr.v10i2.4593)
7. Latygina N. A., Yuvkovetska Y. O., Dubinina O. V., Kokhan O. M., Mykhailova N. O. The Ways of Developing Basic Competences in the Study of Foreign Languages through Interactive Methods // *Journal of Curriculum and Teaching*. – 2022. – Vol. 11, No. 1. – P. 1–14. – DOI: [10.5430/jct.v11n1p1](https://doi.org/10.5430/jct.v11n1p1)
8. Luo B.-R., Lin Y.-L., Chen N.-S., Fang W.-C. Using Smartphone to Facilitate English Communication and Willingness to Communicate in a Communicative Language Teaching Classroom // *2015 IEEE 15th International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT)*. – 2015. – P. 320–322. – DOI: [10.1109/ICALT.2015.22](https://doi.org/10.1109/ICALT.2015.22)
9. Richards J. C. *Communicative Language Teaching Today*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 47 p. – [Electronic source](#)